



THE ROLE AND OPPORTUNITIES OF WOMEN'S SOCIAL RESPONSIBILITY IN THE IMPLEMENTATION OF UZBEKISTAN'S NEW DEVELOPMENT STRATEGY

Dilmura Mamatyusupovna Juraboyeva

Teacher at Secondary School No. 40

Researcher at Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: strategy, women's responsibility, responsibility, social responsibility, reform, dedication, duty, obligation, social task.

Received: 08.08.26

Accepted: 09.08.26

Published: 10.08.26

Abstract: This article analyzes, from a socio-philosophical perspective, the opportunities for developing women's social responsibility in the process of effectively implementing Uzbekistan's new development strategy. The study examines issues related to ensuring gender equality in the country, expanding women's participation in society and public administration, and increasing their economic, political, and spiritual engagement. It also considers the role of women in the family, education, entrepreneurship, and civil society institutions, as well as the factors influencing the formation of social responsibility. Based on national values, contemporary reforms, and international experience, the article substantiates the priority areas for realizing women's potential. The analysis concludes that strengthening women's social responsibility is an important prerequisite for sustainable development, social cohesion, and the development of human capital. In addition, practical recommendations are developed for further improving cooperation among the state, civil society institutions, and educational institutions in this area.

O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA AYOLLARNING IJTIMOIIY MA'SULIYATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Dilmura Mamatyusupovna Jo'raboyeva

Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani

40-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: strategiya, ayollar mas'uliyati, mas'uliyat, ijtimoiy mas'uliyat, islohot, fidoyilik, burch, majburiyat, ijtimoiy vazifa.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasini samarali amalga oshirish jarayonida ayollarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish imkoniyatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda mamlakatda gender tengligini ta'minlash, ayollarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ularning iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy faolligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ayollarning oila, ta'lim, tadbirkorlik va fuqarolik jamiyati institutlaridagi o'rni hamda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan. Maqolada milliy qadriyatlar, zamonaviy islohotlar va xalqaro tajriba asosida ayollar salohiyatini ro'yobga chiqarishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan. Tahlillar natijasida ayollarning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish barqaror taraqqiyot, ijtimoiy hamjihatlik va inson kapitalini rivojlantirishning muhim sharti ekani xulosa qilingan. Shuningdek, mazkur yo'nalishda davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va ta'lim muassasalari hamkorligini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЖЕНЩИН В РЕАЛИЗАЦИИ НОВОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Дилмура Маматюсуповна Джурабоева

Учитель общеобразовательной школы № 40, Коштантинского района Ферганской области

Исследователь Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: стратегия, ответственность женщин, ответственность, социальная ответственность, реформа, самоотверженность, долг, обязанность, социальная задача.

Аннотация: В данной статье с социально-философской точки зрения проанализированы возможности развития социальной ответственности женщин в процессе эффективной реализации новой

стратегии развития Узбекистана. В исследовании освещены вопросы обеспечения гендерного равенства в стране, расширения участия женщин в общественной жизни и государственном управлении, повышения их экономической, политической и духовной активности. Также рассмотрены роль женщин в семье, образовании, предпринимательстве и институтах гражданского общества, а также факторы, влияющие на формирование социальной ответственности. На основе национальных ценностей, современных реформ и международного опыта обоснованы приоритетные направления реализации потенциала женщин. В результате анализа сделан вывод о том, что повышение социальной ответственности женщин является важным условием устойчивого развития, социальной сплочённости и развития человеческого капитала. Кроме того, разработаны практические рекомендации по дальнейшему совершенствованию сотрудничества государства, институтов гражданского общества и образовательных учреждений в данном направлении.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutuvchi har qanday innovatsion yondashuv muayyan qadriyatlar tizimiga tayanadi. Modernizatsiya jarayonida xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimiga innovatsion mexanizmlarning joriy etilishi nafaqat ushbu sohaning samaradorligini oshiradi, balki innovatsiyalarning o‘zi ham jamiyat ijtimoiy ongida muhim qadriyat sifatida qaror topishiga xizmat qiladi. Natijada ular mavjud qadriyatlar tizimining ajralmas va zamonaviy elementiga aylanadi. Mazkur jarayon mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, ijtimoiy tizimning innovatsion yondashuv asosida takomillashuvi va yangi bosqichga ko‘tarilishini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion jarayonlarning qadriyat darajasiga ko‘tarilishi jamiyatda yangicha tafakkur va innovatsion madaniyatni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Biroq innovatsion yondashuvni rivojlantirish tarixiy-milliy qadriyatlar, madaniy meros va ilg‘or an‘analardan voz kechishni anglatmaydi. Aksincha, ularni zamonaviy innovatsion qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, o‘zaro boyitish hamda insonlarning dunyoqarashi va ijtimoiy ongining tarkibiy qismiga aylantirish orqali jamiyatning barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ayollar mas'uliyatini oshirish va ularni jamiyatdagi islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish masalasi ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyot davomida ayollarning jamiyatdagi o'rni, huquqlari va ijtimoiy faolligi turli davrlarda o'ziga xos dinamikada rivojlanib kelgan. Mazkur masalaning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda Aristotel, Platon, R. Dekart, I. Kant, G. Hegel va E. Fromm kabi mutafakkirlarning inson, jamiyat, adolat, erkinlik hamda fuqarolik mas'uliyatiga oid qarashlari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy olimlar tomonidan ham ayollarning ijtimoiy mas'uliyati, fuqarolik faolligi hamda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni keng o'rganilgan. Jumladan, K. Borman, P. Barroy, M. Vales, E. Kox va S. Haggardning tadqiqotlarida ayollar faolligining demokratik taraqqiyot, fuqarolik jamiyati va barqaror rivojlanishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari orasida N. Ivanova, M. Martin, I. Groshev, S. Prigojina hamda L. Popovalarning ilmiy izlanishlari ayollar mas'uliyatini oshirish, ularning ijtimoiy munosabatlardagi ishtirokini kengaytirish va gender tengligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan.

O'zbekistonda esa ayollar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish, ularning jamiyat hayotidagi faolligini kuchaytirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalari M. Xolmatova, S. Safaeva, A. Xuseynova, R. Ubaydullayeva, S. A. Axrorov, N. D. Jo'rayeva, N. M. Muravyova, K. U. Najmiddinova, F. A. Primova, X. Nasrullayeva, M. A. Karimova, G. B. O'razaliyeva hamda N. Annaeva kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ishlari ayollarning ijtimoiy faolligi, tadbirkorlikdagi ishtiroki, oilaviy tarbiya, huquqiy madaniyat, ijtimoiy himoya va gender munosabatlarini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy asoslarini shakllantirishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar. Jamiyatda ayollarning nufuzi va ijtimoiy mavqeini yuksaltirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash bugungi kunda siyosiy, ma'naviy hamda iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu bois O'zbekistonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilib, bu boradagi islohotlar izchil va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ayollarning ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga qaratilgan bunday kompleks siyosat xalqaro tajribada ham nisbatan kam uchraydigan yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish, ularning bilim va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, huquq va qonuniy

manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni qo'llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son Farmoni xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash tizimini yo'lga qo'yish, oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish va ushbu sohadagi institutsional mexanizmlarni takomillashtirishda muhim huquqiy asos bo'ldi.

Mazkur islohotlarga qadar ayollarni ijtimoiy himoya qilish va ularning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish tizimida qator muammolar mavjud edi. Jumladan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish ishlari yetarli darajada tizimli tashkil etilmagan, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan ayollar bilan individual ishlash mexanizmlari shakllanmagan, ularning bandligini ta'minlash ijtimoiy muammolarni hal etishning ustuvor yo'nalishi sifatida yetarli darajada e'tirof etilmagan. Shuningdek, gender tengligini ta'minlash va ayollarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga kompleks yondashuvning yetishmasligi, reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish tizimidagi kamchiliklar, ayniqsa chekka hududlarda tibbiy-profilaktik xizmatlarning sustligi ham muhim muammolardan biri edi.

Bundan tashqari, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va bepul yuridik maslahatlar berish mexanizmlarining zamon talablariga to'liq javob bermasligi, shuningdek, xotin-qizlar qo'mitalarining keng ko'lamli vazifalarni bajarishi uchun zarur vakolatlar hamda tashkiliy resurslarning yetarli emasligi ushbu sohadagi islohotlarning samaradorligini cheklab kelgan. Keyingi yillarda amalga oshirilgan institutsional va huquqiy islohotlar aynan ana shu tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilib, ayollarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, ularning ijtimoiy mas'uliyati va fuqarolik faolligini oshirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son ***"Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"***gi Farmoni mamlakatda xotin-qizlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur hujjat asosida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalarining tashkiliy tuzilmasi tubdan takomillashtirildi, ularning vakolatlari kengaytirildi va faoliyatining ustuvor yo'nalishlari aniq belgilab berildi. Bu esa ayollarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va ularni jamiyat taraqqiyotining faol subyektiga aylantirish uchun institutsional asos yaratdi.

Farmonning muhim innovatsion yo'nalishlaridan biri xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli sohalarda o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda oila institutini mustahkamlashga qaratilgan tizimli boshqaruv

mexanizmlarini joriy etishdan iborat bo'ldi. Xususan, ushbu vazifalarni amalga oshirish va muvofiqlashtirish tuman (shahar) hokimlarining o'rinbosarlari hamda xotin-qizlar bo'limlari rahbarlari zimmasiga yuklatildi. Bu esa yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, erta nikohlarning oldini olish, oilalar barqarorligini ta'minlash va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mas'uliyatni yanada kuchaytirdi.

Yoshlarni oilaviy hayotga puxta tayyorlash maqsadida "Oila dorilfununlari"da qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etilib, ularda reproduktiv salomatlik, oilaviy munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasi va oilaga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, tegishli davlat organlari bilan hamkorlikda oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy muammolari o'rganilib, ularni hal etishga qaratilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqildi. Zero, mustahkam va osoyishta oilaga ega bo'lgan ayolning o'z ustida ishlashi, kasbiy faoliyatini rivojlantirishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida "Huquqshunos ayollar", "Ilm-fan va ayol", "Ijodkor ayollar", "Tashabbuskor ayollar", "Ayol va salomatlik" hamda "Faxriy ayollar" kabi jamoatchilik birlashmalari tashkil etildi. Bundan tashqari, "Qizlarjon klubi" faoliyati yo'lga qo'yilib, yosh qizlarning ijtimoiy faolligini, liderlik salohiyatini va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi platforma yaratildi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi nufuzi va faolligini rag'batlantirish maqsadida har yili "Yil ayoli", "Nafosat" respublika ko'rik-tanlovlari hamda Qizlar forumi muntazam o'tkazila boshlandi. Shu bilan birga, ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash uchun maxsus o'quv kurslari, konsepsiyalar va malaka oshirish dasturlari ishlab chiqildi. Xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassis lavozimining joriy etilishi esa oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, ayollarning kasbiy rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy faolligi va boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirishda muhim institutsional omil bo'lib xizmat qildi.

Siyosiy partiyalar bilan hamkorlik doirasida 2018–2019-yillarga mo'ljallangan Harakatlar rejasi ishlab chiqilib, ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar belgilandi. Mamlakatdagi beshta siyosiy partiyaning "Ayollar qanotlari" bilan hamkorlikda turli boshqaruv lavozimlari uchun 6 ming nafardan ortiq istiqbolli ayol kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Bundan tashqari, xotin-qizlarning ilmiy salohiyati va innovatsion faolligini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida "O'zbekiston Ixtirochi ayollar" uyushmasi tashkil etildi. Mazkur uyushma ayollarning ilmiy-

tadqiqot, ixtirochilik va innovatsion faoliyatini rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish hamda ilm-fan sohasidagi tashabbuslarini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari to'g'risidagi elektron ma'lumotlar bazasi yaratilib, iste'dodli va faol xotin-qizlarni davlat hamda jamoat tashkilotlaridagi rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimi yo'lga qo'yildi. "Mo'tabar ayol" ko'krak nishonining ta'sis etilishi esa jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan xotin-qizlarning mehnatini e'tirof etish va ularni rag'batlantirishning muhim vositasiga aylandi.

Islahotlarning ikkinchi innovatsion ustuvor yo'nalishi ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratildi. Xususan, nogironligi bo'lgan ayollar, kam ta'minlangan oilalar vakillari, boquvchisini yo'qotgan hamda farzandlarini yolg'iz tarbiyalayotgan onalarning yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha aniq institutsional mexanizmlar yaratildi. Mahallalarda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida oilalarning ijtimoiy holati o'rganilib, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun individual "Yo'l xaritalari" ishlab chiqildi.

Mazkur yo'nalishda davlat budjeti mablag'lari hisobidan faoliyat yurituvchi Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi muhim ijtimoiy institut sifatida shakllandi. Fond tomonidan ehtiyojmand ayollarga moddiy yordam ko'rsatish, ularning sog'lig'ini tiklash, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda reabilitatsiya tadbirlarini moliyalashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, nogironligi bo'lgan xotin-qizlar nogironlik aravachalari, protez-ortopediya vositalari, eshitish moslamalari va boshqa zarur tibbiy jihozlar bilan bepul ta'minlandi. Shuningdek, og'ir turmush sharoitidagi ayollarni statsionar davolanish, sanatoriylarda sog'lomlashtirish va ixtisoslashgan klinikalarda bepul davolash dasturlariga jalb etish uchun sezilarli mablag'lar yo'naltirildi.

Ayollarni reabilitatsiya qilish va ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash maqsadida hududlarda xotin-qizlar qo'mitalari huzurida bosqichma-bosqich reabilitatsiya va moslashtirish markazlari tashkil etildi. Ushbu markazlarda psixologlar, huquqshunoslar, tibbiyot hamda ijtimoiy soha mutaxassislari faoliyat yuritib, ayollarga kompleks psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi.

Uchinchi innovatsion ustuvor yo'nalish xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, kasb-hunarga o'qitish hamda munosib mehnat sharoitlarini yaratishga qaratildi. Ushbu vazifalar hukumat tomonidan har yili tasdiqlanadigan kompleks dasturlar asosida izchil amalga oshirilmoqda. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda ehtiyojmand ayollarni ish bilan ta'minlash bo'yicha maxsus maqsadli dasturlar ishlab chiqildi. Natijada minglab xotin-qizlar

doimiy ish o'rinlariga joylashtirildi, ularning iqtisodiy mustaqilligi mustahkamlandi hamda jamiyatdagi ijtimoiy faolligi sezilarli darajada oshdi. Mazkur chora-tadbirlar ayollarning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va mamlakatning barqaror taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini yanada yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida tashkil etilgan "Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi" ayollarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularning tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishda muhim institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda. Fond tomonidan uy bekalari, farzand tarbiyasi bilan band bo'lgan ayollar hamda mehnat bozorida faol ishtirok etmayotgan xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, tadbirkor ayollarga har yili 100 milliard so'm miqdorida mikrokreditlar ajratilishi ularning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va yangi biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda muhim qadam bo'ldi.

Ayollarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida muntazam ravishda "Jamiyatni rivojlantirishda xotin-qizlar tadbirkorligining o'rni" mavzusida biznes forumlari tashkil etilib, ularda zamonaviy biznes yuritish, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va moliyaviy boshqaruv masalalari muhokama qilinmoqda. Shuningdek, "Mahallaning eng yaxshi ayol tadbirkori" tanlovi hamda kasb-hunar ta'limi bitiruvchilari o'rtasida "Ayollar tadbirkorlarining eng yaxshi loyihasi" kabi tanlovlarning yo'lga qo'yilishi ayollar tashabbuslarini rag'batlantirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2019-yilda bandlik dasturlari doirasida xotin-qizlar qo'mitalari va aholi bandligiga ko'maklashish markazlari tomonidan uyma-uy o'rganishlar natijasida aniqlangan 245 ming nafar ishsiz xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. Mahallalar kesimida shakllantirilgan manzilli ro'yxatlar asosida og'ir turmush sharoitida yashayotgan qariyb 10 ming nafar ayolning bandligi ta'minlanib, ushbu maqsad uchun 38 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Bundan tashqari, bo'sh turgan binolarni rekonstruksiya qilish hisobiga 2300 dan ortiq kichik ishlab chiqarish sexlari tashkil etilib, 16 mingga yaqin xotin-qiz uchun yangi ish o'rinlari yaratildi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida kredit ajratish hajmi keyingi yillarda sezilarli darajada oshirildi. Xususan, imtiyozli yillik 7 foizlik kreditlar berish tizimining joriy etilishi xotin-qizlarning o'z biznesini boshlashi va kengaytirishi uchun qulay moliyaviy sharoit yaratdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2014–2016-yillarda tijorat banklari tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 3,8 trillion so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2017–2018-yillarda bu ko'rsatkich 6,1 trillion so'mga yetdi. Shuningdek, Xotin-qizlar qo'mitalarining tavsiyanomalari

asosida Jamoat fondi mablagʻlari hisobidan 100 milliard soʻm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilishi ayollar biznesini qoʻllab-quvvatlashning yangi bosqichini boshlab berdi.

2022-yildan boshlab respublika miqyosida “Oʻzbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” tanlovi muntazam oʻtkazila boshladi. Mazkur tanlov ayollarning innovatsion gʻoyalari moliyalashtirish, patentlash va amaliyotga joriy etishni ragʻbatlantirish bilan birga, ularning ilmiy va texnologik salohiyatini namoyon etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xalqaro innovatsion tanlovlarda, jumladan, Xitoyda oʻtkazilgan nufuzli musobaqalarda oʻzbekistonlik iqtidorli ayollarning Gran-pri mukofotini qoʻlga kiritishi mamlakat ayollarining ilmiy-intellektual salohiyati xalqaro miqyosda ham yuksak eʼtirof etilayotganini koʻrsatadi.

Toʻrtinchi innovatsion ustuvor yoʻnalish jamiyatda sogʻlom maʼnaviy-axloqiy muhitni qaror toptirish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu yoʻnalish doirasida mahallalarda, oilalarda, ayniqsa ayollar va yoshlar oʻrtasida maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimli ravishda olib borilib, sogʻlom turmush tarzi, oilaviy qadriyatlar, huquqiy madaniyat va fuqarolik masʼuliyatini yuksaltirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Natijada ayollarning nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy faolligi, balki jamiyatning maʼnaviy taraqqiyotidagi oʻrni ham izchil mustahkamlanib bormoqda.

Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi huzurida tashkil etilgan “Xotin-qizlar va oilani qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi” ayollarni iqtisodiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash va ularning tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishda muhim institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda. Fond tomonidan uy bekalari, farzand tarbiyasi bilan band boʻlgan ayollar hamda mehnat bozorida faol ishtirok etmayotgan xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish boʻyicha tizimli ishlar yoʻlga qoʻyildi. Ayniqsa, tadbirkor ayollarga har yili 100 milliard soʻm miqdorida mikrokreditlar ajratilishi ularning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va yangi biznes tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlashda muhim qadam boʻldi.

Ayollarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida muntazam ravishda “Jamiyatni rivojlantirishda xotin-qizlar tadbirkorligining oʻrni” mavzusida biznes forumlari tashkil etilib, ularda zamonaviy biznes yuritish, innovatsion gʻoyalarni amalga oshirish va moliyaviy boshqaruv masalalari muhokama qilinmoqda. Shuningdek, “Mahallaning eng yaxshi ayol tadbirkori” tanlovi hamda kasb-hunar taʼlimi bitiruvchilari oʻrtasida “Ayollar tadbirkorlarining eng yaxshi loyihasi” kabi tanlovlarning yoʻlga qoʻyilishi ayollar tashabbuslarini ragʻbatlantirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2019-yilda bandlik dasturlari doirasida xotin-qizlar qoʻmitalari va aholi bandligiga koʻmaklashish markazlari tomonidan uyma-uy oʻrganishlar natijasida aniqlangan 245 ming nafar

ishsiz xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. Mahallalar kesimida shakllantirilgan manzilli ro'yxatlar asosida og'ir turmush sharoitida yashayotgan qariyb 10 ming nafar ayolning bandligi ta'minlanib, ushbu maqsad uchun 38 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Bundan tashqari, bo'sh turgan binolarni rekonstruksiya qilish hisobiga 2300 dan ortiq kichik ishlab chiqarish sexlari tashkil etilib, 16 mingga yaqin xotin-qiz uchun yangi ish o'rinlari yaratildi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida kredit ajratish hajmi keyingi yillarda sezilarli darajada oshirildi. Xususan, imtiyozli yillik 7 foizlik kreditlar berish tizimining joriy etilishi xotin-qizlarning o'z biznesini boshlashi va kengaytirishi uchun qulay moliyaviy sharoit yaratdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2014–2016-yillarda tijorat banklari tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 3,8 trillion so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2017–2018-yillarda bu ko'rsatkich 6,1 trillion so'mga yetdi. Shuningdek, Xotin-qizlar qo'mitalarining tavsiyanomalari asosida Jamoat fondi mablag'lari hisobidan 100 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilishi ayollar biznesini qo'llab-quvvatlashning yangi bosqichini boshlab berdi.

2022-yildan boshlab respublika miqyosida "O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi" tanlovi muntazam o'tkazila boshladi. Mazkur tanlov ayollarning innovatsion g'oyalarini moliyalashtirish, patentlash va amaliyotga joriy etishni rag'batlantirish bilan birga, ularning ilmiy va texnologik salohiyatini namoyon etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xalqaro innovatsion tanlovlarda, jumladan, Xitoyda o'tkazilgan nufuzli musobaqalarda o'zbekistonlik iqtidorli ayollarning Gran-pri mukofotini qo'lga kiritishi mamlakat ayollarining ilmiy-intellektual salohiyati xalqaro miqyosda ham yuksak e'tirof etilayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollarning ijtimoiy mas'uliyati va faolligi ularning davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, fan hamda tadbirkorlik sohalarida erkin va ijodiy ishtirok etishi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois ayollarning salohiyatini ro'yobga chiqarish nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun bir qator strategik vazifalarni izchil amalga oshirish zarur. Avvalo, ayollar o'rtasida inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy bilim va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda ularning ijtimoiy ong va fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, "Har bir oila – tadbirkor" umummilliy dasturi doirasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, oilaviy va xususiy tadbirkorlikdagi ishtirokini kengaytirish hamda o'z biznesini yuritish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, ayollar o'rtasida sog'lom ma'naviy-ijtimoiy raqobat muhitini shakllantirish, ularning mamlakatda kechayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy islohotlardan muntazam xabardorligini ta'minlash, davlatning xotin-qizlarga oid siyosatining mazmuni va ahamiyatini chuqur anglashiga ko'maklashish ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa ayollarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim muassasalari va oilaning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan uzluksiz jarayondir. Aynan shu yondashuv ayollarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi ishtirokini yanada kengaytirish, ularning innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild: Ye-M. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. B. 55.
2. Falsafa qomusiy lug'at / Q. Nazarov va boshq. Toshkent: Sharq, 2004. B. 243.
3. Tarbiya: Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya / Tuzuvchi M. N. Aminov; mas'ul muharrir A. Majidov. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. B. 264.
4. Sagindikova, N. D. Talabalar o'quv faoliyatida mas'uliyatning gender xususiyatlari: falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2017. B. 11.
5. Mamashokirov, S. Ekologik faollik va mas'uliyatni shakllantirishda ijtimoiy-siyosiy omillarning roli: doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent, 1997.
6. Jo'raqobilova, H. X. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishda mahalliy boshqaruv xodimlarining mas'uliyatini oshirish omillari: nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2009.
7. Ergashev, I. S. Shaxs ma'naviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligi: nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2011. B. 15.
8. Safojev, N. S. Psixologicheskiye osobennosti natsionalnogo samosoznaniya studentcheskoy molodeji: avtoreferat dissertatsii doktora psixologicheskix nauk. Tashkent, 2005. S. 14.
9. Ma'naviyat: Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent, 2010. B. 633.
10. Yakubov, Yu. M. Islom ta'limotida shaxs va jamiyat munosabatlari masalasi: nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2008.